



PAPER

BOLALARDA KITOBHONLIKKA QIZIQISHINI SHAKLLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Muminova Dilfuza Baxromjanovna^{1,*}

¹UBS Magistranti

* muminova647@gmail.com

Abstract

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning kitobga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishda hozirgi kundagi qo'llanilayotgan usullar va qanday samarali usullardan foydalansa yanada maqsadga muvofiq bo'lishi haqida yoritilgan. Badiiy adabiyotga qiziqtirishda hozirgi kunda eng samarali usullari afzalliklari yoritiladi. Shu bilan birga, bolalarning nutqiy, intellektual va ijodiy rivojida kitobxonlik va ota onalar bilan hamkorlik usullari ularning pedagogik tadbiri ham ko'rib chiqiladi.

Key words: maktabgacha ta'lim, kitobxonlik, ota-onalar, ertak kitoblar, syujetli-rolli o'yinlar, multimedia, bolalar rivoji, ijodiy fikrlash, nutq rivoji.

Kirish

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlikka bo'lgan qiziqishni shakllantirish, ularning nutq, tafakkur, diqqat va tasavvur rivoji uchun asosiy vositalardan biridir. Shuningdek ularda to'g'ri tovush talaffuzini shakllantirishda xam muxim ahamiyat kasb etadi. Bolalik davrda shakllangan kitobga bo'lgan mehr maktab va keyingi bosqichlarda o'quv muvaffaqiyatini belgilaydi. Rus olimi K.D.Ushinskiyning fikricha "Hikoya va ertaklar orqali bolada axloqiy sifatlar shakllanib boradi" deb ta'kidlaydi.

Bugungi kunda texnologiyalar xamda electron vositalar orqali maktabgacha yoshdagi

bolalarning kitob bilan tanishuv jarayonini yanada qiziqarli va interfaol qilmoqda. Bolalrni kitobsevar qilib tarbiyalashda maktabgacha ta'lim xamda ota -onalar hamkorligi juda katta rol o'ynaydi. Psixologlar fikricha hozirgi kunda bolalar akselkeratsiya jarayoni jadal rivojlanayotganligi tufayli kitobga bo'lgan qiziqish o'rnini raqamli texnologiyalar egallamoqda. Axborot ta'siri kuchi ularga hissiy va fikrlashini orttirmoqda.

O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimida bolalarni kitobxonlikka qiziqtirish pedagoglarga yangi metodik vositalarni tatbiq etish imkonini yaratib, bolalarning kitobga bo'lgan qiziqishini oshirishga xizmat qilmoqda.

Compiled on: April 2, 2026.

Copyright: ©2026 by the authors. Submitted to Advances in Science and Education for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).

Asosiy qism

Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki: hozirgi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarni ongi va tafakkuridagi akseleratsiya jarayonlari Keskin oshmoqda. Bu jarayon zamonaviy yondashuvlar, ya'ni raqamli axborot vositalari orqali yuzaga kelmoqda. Mazkur xolat bolalar nutqiga xam salbiy va ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Keyingi yillarda maktabgacha ta'lim sohasida xam keng qamrovli o'zgarishlar kiritildi. Jumladan 2017-yil 30-sentabrdagi PF -598 farmonda xam Prezidentimizning "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" farmoni qabul qilindi. Bu esa maktabgacha ta'lim va kelajak avlodlarga berilayotgan eng katta e'tibor albatta.

2. Bolalarda kitobga bo'lgan qiziqishini shakllantirish pedagogik omillari

Maktabgacha ta'lim katta va tayyorlov guruh tarbiyalanuvchilari jismoniy va ma'naviy ruhiy jihatdan o'z meniga ega bo'lib boradilar. Ular xar bir berilgan savol yoki topshiriqni sharhlaydilar va o'ylab ma'nosini anglay oladilar. Katta va tayyorlov guruhlarining dunyoqarashi o'zgarishida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'tkazib borilgan "Nutq o'stirish ,badiiy adabiyot ,savodhonlik" faoliyatlari muxim o'rin egallaydi. Maktab ta'limiga tayyorlashda ham ularni nutqi mustaqil namoyon bo'lib ,erkin va mantiqiy fikrlashni o'rganadilar.

Kitobxonlikka qiziqtirishda samarali usullar:

Badiiy adabiyotga qiziqtirishda hozirgi kundagi samarali usullar quyida keltirilgan.

- Ifodali o'ish,
 - Hikoya qilib berish,
 - Sahnalashtirish,
 - Rasmlar asosida,
 - Savol -javob suhbat,
 - She'rlarni ritm harakat va qo'shiq bilan o'rgatish,
 - O'yin texnologiyasi orqali qiziqtirish,
 - Ota- onalar bilan hamkorlikda ishlash,
 - Milliy adabiyotlar,
 - Xalq og'zaki ijodi,
 - Bolalar adabiyoti,
- Kabilar muhim o'rin tutmoqda.

Bu kabi usullardan tashqari tarbiyachi o'tayotgan faoliyati davomida bollarga kichik voqea hodisadan xam ajoyip ertak yoki hikoyalar aytib berishi va bola

hayotida ro'y berayotgan voqealardan o'zlari so'zlab berishlarini taklif qilishlari xam mumkin. Bunda bolalarning badiiy adabiyotga qiziqishlari sezilarli darajada oshadi. Shu bilan birga, pedagoglar bolalarning individual ehtiyojini aniqlab, tabiat qo'ynida yoki sayr sayohat vaqtida xam odobga yetaklovchi tarbiya beruvchi kichik hikoyalar to'qib aytib berishlari xam mumkin.

Demak bolalarning eng sevimli faoliyatlaridan biri mehnat jarayonlarida xam ertaklar eshitish orqali idrokni rivojlantiradi, mexnatga muxabbat uyg'otiladi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 3 oy davomida audio ertaklarni tinglagan 4-5 yoshdagi bolalarda nutq boyligi 30-35

Hozirgi kunda maktabga ta'lim tashkilotlarida kitob burchaklari tashkil etilib kitoblardan namunalkar turli ertak va sh'riy kitoblar ,topishmoq va maqollardan iborat rasmlar kitoblar xam bolajonlar foydalanishlari uchun tayyorlangan. Bugungi kunda pedagogic amalyotda interfaol metodlar ,sahnalashtirish, multimedia vositalaridan foydalanish, samarali natija bermoqda.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki yurtimiz olimlaridan N.Saidaxmedov ,R.Mavlonova, B.Qodirovalar xam maktabgacha yoshdagi bolalarda badiiy adabiyotga qiziqish o'yin ,sahnalashtirish ,rasmlar ,rolli o'yinlar orqali kuchaytirilishini ta'kidlaydilar. Bolalarda kitobga bo'lgan qiziqishini shakllantirish uzluksiz va maqsadli pedagogik jarayon bo'lib , bunda tarbiyachi ,ota-ona, ta'lim tashkilotlarining xamkorligi dolzarb masala bo'lib kelmoqda. Kitobxonlik ma'daniyatini rivojlantirish bolalarning kelajakdagi intellektual va ma'naviy kamolotini ta'minlaydi. O'z fikrini ravon va erkin ifodalashga yordam beradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning kitobga bo'lgan qiziqishini shakllantirishning eng samarali va zamonaviy usullaridan foydalanish tarbiyachidan yuksak malaka va kreativlik talab qiladi. Bu esa bola rivojlanishida nutqiy va ijodiy o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, pedagoglarning o'z ustida ishlashi va zamon bilan xamnafas yuksalishiga ,o'zlari uchun xam kitobxonlik madaniyatini shakllantirishlarida samaradorlikni oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi 2017-yil 30 sentabrdagi PF-5198 farmoni
2. " Ilk qadam " davlat o'quv dasturi -T,22
3. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi. Raqamli ta'lim konsepsiyasi, Toshkent, 2022.
4. Saidaxmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar;-T.Moliya 2023
5. F.Qodirova,N.Qayumova,M.A'zamova.SH.Toshpo'latova " Maktabgacha pedagogika" Toshkent, 2019.Tafakkur nashriyoti.
6. Yusufova G. Bolalar psixologiyasi va rivojlanishi, Toshkent, 2020.
7. Xodjayev M. Raqamli pedagogika asoslari, Toshkent, 2023.
8. UNESCO. Early Childhood Education and Digital Learning, Paris, 2021.
9. Smith L. Digital Literacy in Early Childhood Education, London, 2020.
10. Johnson M. Interactive Reading and Child Development, New York, 2019.